

Matni ustida ishlash.

“Mashinalar odamga qanday yordam beradi?” ertagi navbatma-navbat o‘qitiladi. Ertak matni yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Mashinalar nima deb bahslashib qolishdi?
2. Bahsda qaysi mashinalar ishtirok etdi?Ular nima deyishdi?
3. Svetorning aytgan gapiga o‘z munosabatingizni bildiring.
4. Siz ertakka yana qaysi transportlarning bahsini qo‘shgan bo‘lardingiz?
5. Ular insonga qanday yordam beradi?

Ertak matnidagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

bartaraf qilmoq – tugatmoq, yo‘q qilmoq.

“Ma‘nodoshini top” mashqi.

- *“Yordam, kerak, barcha, odam” so‘zlari o‘rniga yana qanday so‘zlardan foydalansa bo‘ladi?*

Mashq daftariga so‘zlarning ma‘nodoshi yoziladi.

(Yordam-ko‘mak, kerak-zarur, barcha-hamma, odam-inson, kishi)

“Tanlab o‘qish” mashqi.

Rasmda berilgan transportlarning gaplarini topib o‘qitiladi.

Ertakni rollarga bo‘lib o‘qitiladi va sahnalashtiriladi.

Darslikdagi topishmoqlar o‘qitiladi va javoblari aniqlanadi.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

- Darsda nimalarni bilib oldingiz?
- Biz bugun darsda nimalarni bajardik?

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

Siz kelajakda qanday transportlar bo‘lishini istaysiz? “Kelajak transporti” mavzusida rasm ishlang.

4-Mavzu: Yo‘l belgilari so‘zga kirganda...

Dars maqsadi:

- Kavsar Turdiyevaning “Yo‘l harakati qoidalari” she‘ridan olgan parcha bilan tanishtirish;

- Yo'l belgilarini tanishtirish orqali yo'l harakati qoidalariga amal qilishga o'rgatish;

- Ifodali o'qish ko'nikmasini shakllantirish.

Tayanch so'zlar: yo'l belgilari, ularning mazmuni.

Didaktik materiallar: yo'l belgilari tasviri tushirilgan rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkillashtirib olish.

Faollashtiruvchi mashqni o'tkazish. "So'zlar juftligi" mashqi.

Juftlashib kelgan so'zlarni aniqlang. (svetofor belgi)

SVEBELTOGIFOR

II. O'tilganlarni takrorlash. (8 daqiqa)

Siz kelajakda qanday transportlar bo'lishini istaysiz? "Kelajak transporti" mavzusida rasm ishlangan rasmlar ko'rgazmasi tashkil qilinadi.

III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)

Amaliy topshiriq. "Meni tushun" mashqi.

Gap nima haqida ketayotgani aniqlanadi.

U keng, tor, juda triband bo'lishi mumkin. Unda doimo harakatlanish to'xtamaydi. U tekis, to'g'ri ham bo'ladi. (Yo'l)

Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Sizda qaysi so'z hosil bo'ldi?
2. Qaysi ma'lumotlar javobni topishga yordam berdi?

Mavzuni tushuntirish.

Darslikdagi rasm asosida suhbat uyushtiriladi.

- Rasmda nimalarni ko'ryapsiz?
- Ular insonga qanday yordam beradi?
- Siz yana qanday belgilarni bilasiz?

Fikrlar umumlashtiriladi va o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi.

Matn ustida ishlash.

Kavsar Turdiyevaning “Yo‘l harakati qoidalar” she‘ri o‘quvchilarga navbatma-navbat o‘qitiladi. She‘r yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. She‘r nima haqida ekan?
2. Yo‘l belgilari nima uchun kerak deb o‘ylaysiz?
3. Siz yana qanday yo‘l belgilarini bilasiz?
4. Yo‘lda qanday qoidalarga amal qilasiz?

Darslikdagi topshiriqlar bajariladi.

Kichik guruhlarda darslikda berilgan belgilar nimani bildirishi muhokama qilinadi.



Mashq daftari bilan ishlash.

Mashq daftaridagi yo‘l belgilarining nomlari yoziladi.

Darslikdagi topishmoqning javobi (svetofor va yo‘l belgilari) topilgandan so‘ng, daftarga svetoforning har bir chirog‘i qanday ma‘no anglatishi yoziladi.

“Oynadagi aks” mashqi.

Juftlikda oynadagi aksi berilgan gap o‘qiladi va mazmuni izohlanadi.

izəbyəti ɹɹu - izəbiop l'oY

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

-Bugun darsda nimalarni bilib oldik? Darsda nimalarni bajardik?

V. Uyga vazifa. (1 daqiqa)

Yo‘l belgilari va svetofor haqida she‘rlar topib yod oling.